



XALQ DEPUTATLARI TOMDI TUMAN KENGASHINING QARORI

2022 - yil 31 - oktabr

VI-43-161-5-75-K/22

Tomdi tumani hokimligi

Tumanda davlat byudjeti va mahalliy byudjet daromadlari prognoz ko'rsatkichlarining ijrosi to'g'risida

O'zbekiston Respublikasining "2022 yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti tugrisida"gi Konuniga muvofiq, Xalk deputatlari Tomdi tumani Kengashi tomonidan 2022 yil uchun tuman mahalliy byudjet daromadlarning prognoz ko'rsatkichlari tasdiqlangan bo'lib, mahalliy byudjetining joriy yil 9-oylik daromadlari aniqlangan reja ko'rsatkichi 19.819 mln so'm bo'lib, amalda 22.140 mln so'mga yoki belgilangan rejaga nisbatan 112 foizga bajarilib, mahalliy byudjetga 2.321 mln so'm miqdorida ortiqcha tushim tushirildi. Shu bilan birga mahalliy byudjetining xarajatlari qismiga joriy yilning 9-oyligida belgilangan reja 40.272 mln, sum bo'lib, 37.404 mln. so'mga yoki 93 foizga bajarildi.

Mahalliy byudjetga tushadigan soliqlar kesimida reja ko'rsatkichlarining bajarilishi quyidagicha. Shundan:

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'iga belgilangan reja 711,0 mln. so'mni tashkil etib, amalda 921,0 mln. so'mga ya'ni rejaga nisbatan 129 foizga bajarildi.

Tuman mahalliy byudjeti daromadlar rejasining asosiy qismi suv resurslaridan foydalanganlik uchun olinadigan soliq tushumi bo'lib, yillik belgilangan jami daromadlari reja ko'rsatkichlarining 75% tashkil etadi. Joriy yilning 6-oyi uchun 15.055 mln so'm miqdorida reja belgilanib, haqiqatda 16.667 mln so'mga ya'ni belgilangan reja ko'rsatkichiga nisbatan 110 foizga bajarilib, byudjetga qo'shimcha 1.611 mln. so'm soliq tushirildi.

Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq turining aniqlangan rejasi 204 mln. so'mni tashkil etib amalda 318 mln. so'm miqdorida soliq tushirildi.

Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'i rejasi 133,0 mln so'mni tashkil etib, haqiqatda 359,7 mln. so'mga bajarildi.

Aksiz solig'i rejasi 1525,0 mln. so'm bo'lib, amalda 1467 mln. so'mga bajarildi.

Yer osti boyliklaridan foydalanganlik uchun solinadigan soliqlarga belgilangan reja ko'rsatkichi 2.191 mln. so'm bo'lib, hisobot davrida 2.338 mln. so'mga bajarilib, belgilangan rejaga nisbatan 147 mln. so'mga ortiqcha soliq turilishi ta'minlandi.

Bosha tushumlardan 71,0 mln. sum tushirildi.

Tuman mahalliy byudjetining xarajatlari qismiga joriy yilning 9-oyligida belgilangan rejaga nisbatan jami xarajatlarning soxalar kesimidagi % xisobida bajarilishi quyidagicha - Xalk ta'limi bo'limi 13%, Maktabgacha ta'limi 4%, Sog'liqni saqlash soxasi 33 % xamda Boshkaruv organlari va O'zini-o'zi boshqarish organlari 26 %ni, Madaniyat va sport tadbirlari 7 %ni va

boshqa soxalar 17 %ni tashkil etmokda.

Tuman mahalliy byudjetdan mablag‘ oluvchi tashkilotlarni saqlash xarajatlariga xisobot davrida jami 37.403 mln. sum miqdorida mablag‘lar ajratilib moliyalashtirilishi ta‘minlandi. Jumladan:

Obodonlashtirish boshkarmasini saklash xarajatlariga 3.646 mln.sum moliyalashtirib berildi. Shundan

Uzbekiston Respublikasi Prezidentining 04.06.2019 yildagi № PQ-4351-sonli karori ijrosini ta‘minlash maksadida 536,0 mln. sumga 1-dona Suv kuygich “ISUZU” xizmat avtomashinasi sotib olindi.

Xalq ta‘lim soxasiga 4.889 mln. so‘m xamda Maktabgacha ta‘lim muassasalariga 1. 522 mln. sum ajratilib, moliyalashtirilishi ta‘minlandi.

Shuningdek Sog‘liqni saqlash muassasalarini saklash xarajatlariga 12.381 mln. sum moliyalashtirilishi kutilmoqda.

O‘z navbatida tuman Madaniyat bo‘limiga va Axborot kutubxona markazlariga 1.140 mln. sum xamda Bolalar va o‘smirlar sport maktabiga 1.589 mln. sum miqdorida mablag‘ ajratildi.

Veterinariya va Laboratoriya bo‘limlarini saqlash xarajatlariga 970 mln. sum mablag‘ ajratildi.

Davlat organlarini saklash xarajatlariga 8.927 mln. sum va O‘zini-o‘zi boshqaruv organlarini saqlash xarajatlariga xisobot davrida 642 mln. sum mablag‘ ajratildi.

Tuman Ijtimoiy moslashuv markazini saqlash xarajatlariga 43,2 mln. sum mablag‘ ajratilib, moliyalashtirilishi ta‘minlagan.

Davlatimiz tomonidan olib borilayotgan kuchli ijtimoiy siyosatni amalga oshirilishini moliyaviy ta‘minlash maqsadida aholini ijtimoiy himoyalash va turmush farovonligini oshirish bilan bog‘liq xarajatlarga 1.261 mln.so‘m byudjet mablag‘lari sarflandi. Shundan, 14 yoshgacha bolalari bo‘lgan nafaqa oluvchilarga 1.245 mln. so‘mlik, Kam ta‘minlangan oilalarga 16 mln. so‘mlik moddiy yordam pullari o‘z vaqtida tuliq moliyalashtirib berildi.

Tuman mahalliy byudjetining kushimcha manbalari xisobidan 2022 yil byudjet parametrada kuzda tutilmagan xarajatlarni mablag‘ bilan ta‘minlash maksadida joriy yilning 9-oyida xammasi bulib 3.046 mln. sum mablag‘ ajratildi. Shundan yil boshidagi erkin qoldiq mablag‘lari xisobidan 394 mln so‘m, mahalliy byudjetning zaxira jamgarmasi mablag‘lari xisobidan 343 mln. sum va 2022 yil 1-chorak yakuni bilan daromadlarning belgilangan reja kursatkichi ortikcha bajarilgan qismi xisobidan 2. 309 mln. sum mablag‘lar ajratildi.

Mazkur qo‘shimcha mablag‘lar xisobidan kuyidagi xarajatlar amalga oshirilgan.

Jumladan:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 13-apreldagi “Byudjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta‘minlash buyicha qo‘shimcha chora-tadbirlar tug‘risida”gi PQ-5072-sonli qaroriga asosan “Fukarolar tashabbusi jamg‘armasiga” 809.0 mln. sum, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 31.12.2021 yildagi PQ-31-sonli qaroriga asosan xokim yordamchilariga axborot vositalarini xarid qilish xarajatlari uchun 52,0 mln. sum va xokimlikning 2 nafar xodimining davlat tilida ish yuritish asoslarini uqitish xarajatlari uchun 23,1 mln. sum, tuman Obodonlashtirish boshkarmasiga ekilgan daraxt va ko‘chatlarni sug‘orish uchun 3 tn dizel yoqilg‘isini xarid qilish xarajatlariga 38,4 mln. sum, tumandagi OFYlardagi xotin-qizlarga 8 dona planshet vositalarini xarid qilish xarajatlari uchun 40,0 mln. sum, Ayollar va Yoshlar daftariga kiritilgan fukarolarni ijtimoiy va moddiy qullab quvvatlash xarajatlariga

1.188 mln.sum Maktabgacha ta'lim tashkilotlarini 2022/2023 yillar kuz-qish davrida zarur jihozlar va ehtiyot qismlarini xarid qilish xarajatlariga va o'yinlar to'plami, o'yinchoqlar xarid qilish xarajatlari uchun 78,0 mln. sum Umumta'lim maktablarini 2022/2023yillar kuz-qish mavsumi bilan bog'liq xarajatlarga 45,0 mln. sum hamda byudjet parametrida ko'zda tutilmagan xarajatlarni va kreditorlik karzdorliklarini koplash uchun 772,5 mln. sum mablag' ajratildi.

O'zbekiston Respublikasi "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunining 6-,24–moddalariga asosan xalq deputatlari shahar Kengashi

QAROR QILADI:

1. Tuman moliya bo'limi birinchi o'rinbosari M.Abdimalikovning 2022 yil III chorakda daromad va xarajatlar to'g'risidagi hisoboti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tuman hokimi birinchi o'rinbosari (O.Umarov), tuman hokimligi moliya bo'limi (K.Igilikov), tuman g'aznachilik bo'linmasi (M.Julanov) hamda tuman Davlat soliq inspeksiyasi (Sh.Berdiyev)ga;

- joriy yilda belgilangan daromadlar prognoz reja ko'rsatkichlarini to'liq va o'z vaqtida ijrosini ta'minlash;

- qo'shimcha daromadlar hisobidan Davlat dasturlari hamda Hukumat qaror va bayonnomalarida belgilangan tadbirlarni uzluksiz moliyalashtirish;

- tuman mahalliy byudjeti parametrlarida ko'zda tutilgan xarajatlarni, shu jumladan birinchi darajali to'lovlarning o'z vaqtida moliyalashtirilishini ta'minlash;

- byudjet mablag'laridan maqsadli va samarali foydalanilishi hamda byudjet intizomiga rioya etilishi ustidan nazorat o'rnatish topshirilsin.

3. Tuman davlat soliq inspeksiyasi (Sh.Berdiyev)ga:

- byudjet va byudjetdan tashqari maqsadli jamg'armalarga belgilangan prognoz ko'rsatkichlariga solishtirilganda tushgan tushumlarni kupaytirish;

- noqonuniy tadbirkorlik bilan shug'ullanayotgan jismoniy shaxslarni soliqqa tortish, kameral nazoratni kengaytirish, yuridik va jismoniy shaxslarning soliq qarzdorliklarini undirilishini ta'minlasin.

4. Tuman hokimining matbuot kotibi (N.Ametov)ga mahalliy byudjet daromadlari bajarilishi holati va qo'shimcha rezervlarni aniqlash bo'yicha olib borilayotgan ishlar to'g'risida xolis va to'liq axborot-tahliliy sharhlarni tayyorlab, ma'lumotlarni ommaviy axborot vositalari, tuman hokimligining rasmiy sahifasi va ijtimoiy tarmoqlarida muntazam yoritib, keng jamoatchilikka yetkazilishini ta'minlash tavsiya etilsin.

5. Xalq deputatlari Tomdi tuman Kengashi doimiy komissiyalariga mahalliy byudjetni shakllantirishning shaffofligini ta'minlash va uning bajarilishi ustidan tizimli nazorat olib borish tavsiya etilsin.

6. Mazkur qarorning bajarilishi nazorat qilish Xalq deputatlari tuman Kengashining mahalliy byudjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investisiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi raysi (L.Bayanasov) zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi



Q.T.Aldabergenov